



## ABDULLA QAHHOR IJODINING BUGUNGI KUN NUQTAI NAZARI ORQALI TAHLILI.

Akramova Aziza Abduvohidovna

TMI talabasi

[azizaakromova453@gmail.com](mailto:azizaakromova453@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada xalq badiiy sanatining namunasi bo'lgan Abdulla Qahhor ijodining bugungi kundagi ahamiyati, durdona asarlarning mohiyati va uning tahlili yoritilgan.

**Absract:** The article covers the significance of the work of Abdullah Kahhor, an example of folk art, today, the essence of masterpieces and its analysis.

**Kalit so'zlar:** Badiiy tasvir, milliy meros, durdona asarlar, epigraf, munosabat, tahlil, ma'naviy dunyo, axloqiy poklik, ruhiy go'zallik, adabiyot namunasi.

### Kirish

Hozirgi o'zbek adabiyotining ma'naviy miqyosi, salohiyati kundan-kunga o'sib bormoqda. Hammamizga ma'lumki, hayotda, jamiyatda ro'y bergan o'zgarish albatta adabiyotda o'z aksini topadi. Shu ma'noda adabiyot milliy va madaniy merosning ajralmas qismi ekanligini tushunishimiz mumkin. Badiiy adabiyotning eng muhim quroli – so'z. So'zlar yordamida badiiy tasvir yuzaga keladi. O'zbek tilini nozig his etuvchi va uning boy imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanuvchi qalam egasi Abdulla Qahhor ham o'rinli so'z qo'llash mahoratini puxta egallagan adib. Abdulla Qahhor yosh kitobxonlarga murojat etib, ularga adabiyotni sevish, undan bahramand bo'lish lozimligini ta'kidlar ekan quyidagicha fikrlarni bildirgan edi: «Adabiyot ko'ngil ishi, ilhom samarasi. Tuyg'usiz, ilhomsiz yozilgan asar changlanmagan gula o'xshaydi – meva tugmaydi. Ko'ngil rozi bo'lgan asargina kitobxonning ko'ngliga yo'l topadi, kitobxonning ko'nglida meva tugadi...»

### Asosiy qism

Abdulla Qahhor bosib o'tgan hayot yo'li ham, ijod yo'li ham vijdon yo'li bo'lgan. Yozuvchi doim ozod fikr, yangi haqiqatlar uchun kurashgan. Uning ijodiy nafasidan har qanday nohaqliklar titragan. Abdulla Qahhor ijodining adabiy merosi negizini nasriy asarlar tashkil etadi. Adib hikoyalarini shartli ravishda uch yo'nalishga ajratish mumkin: tarixiy hikoyalar, hajviy hikoyalar, zamonaviy hikoyalar. Abdulla Qahhor o'zining «Asror bobo», «Xotinlar», «Ming bir jon», «Mahalla» hikoyalarida zamondoshlarining ma'naviy dunyosini, insoniy xislatlarini, axloqiy pokligini, ruhiy go'zalligini ko'rsatishga alohida e'tibor qaratganligi uning xos sokinlik, mulohazakorlik va teranlikka yetishmoq uchun qancha bilim, mushohada, qancha hayotiy tajribaga ega ekanligini anglatadi. Adib o'z asarlarida eng ko'p xalq donishmandlik namunalariga murojaat qilgan. U asar nomi, epigrafi, dastlabki abzasi, tarkibi yoki xulosa qismida maqollarni ishlatib, asar mazmundorligini oshirishi bilan bir qatorda ma'no kuchaytirish va vaziyatni fosh qilish kabi maqsadlarda foydalanadi. Hikoyani o'qishdan oldin maqolni o'qigan o'quvchi bir butun hikoya ma'nosini anglab yetadi. Abdulla Qahhor asarlari tarkibidagi maqol va matallar asrlar osha bir-biridan



ajralmagan holda rivojlanib, o'z qolipini saqlab qolgan holda badiiy adabiyotda muallaq o'rniga ega janrlar bo'lib kelmoqda. Buning yorqin ifodasini bir necha asarlar orqali ko'rishimiz mumkin. Abdulla Qahhor "O'g'ri" hikoyasining epigrafida "Otning o'limi, itning bayrami" deb yozadi. Epigrafni o'qib o'quvchi hikoyaning mazmumini, kimningdir qiyin vaziyatga tushib qolishi, boshqa birovga xursandchilik olib kelishi mumkinligini anglab yetadi. "O'g'ri" hikoyasida o'zgaralar baxtsizligini tirikchilik manbaiga aylantirib olgan amaldorlar obrazi berilganligiga guvoh bo'lamiz. Unga «Otning o'limi itning bayrami» maqoli epigraf qilib olingan. «Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin. Bir qop somon, o'n-o'nbeshta xoda, bir arava qamish uy, ho'kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo'yish kerak bo'ladi» - kabi misralar shu hikoyadan olingan. «O'g'ri» hikoyasida «Begim deguncha belim sinadi», «Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi», «Berganga bitta ham ko'p, olganga o'nta ham oz», «Kuruq qoshiq og'iz yirtadi», «O'ynashmagil arbob bilan - seni urar har bob bilan» kabi maqollar hikoyaga o'zgacha bir o'rin egallagan.

"Bemor" hikoyasida esa epigrafida Abdulla Qahhor uslubiga xos bo'lgan qisqa va lo'nda "Osmon yiroq, yer qattiq" maqoli qo'llanadi. Bunda osmon va yer o'zaro qaramaqarshi tushunchalar bo'lib, kambag'al va ilmsiz kishining vaziyatdan chiqib keta olmasligi tasvirlangan. Ushbu hikoyada bemorga qarashga mablag'i bo'lmagan turmush o'rtog'ining holatiga nisbatan "Bunday paytlarda yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi" maqolidan foydalanilgan. Yo'g'on va ingichka o'zaro zid ma'noda ishlatilib, bosh qahramon misolida mablag'i bor odam vaziyatdan chiqa oladi, qashshoq esa uziladi, ya'ni vaziyatning qurboni bo'ladi, degan natijani izohlashga xizmat qiladi. Shuningdek bemor» hikoyada qattiq og'rib, vafot etgan ayol taqdiri va unga biror yordam berishdan batamom o'jiz, qo'li kalta Sotiboldining ahvoli, uyquga to'ymagan, hali aniq shakl olmagan jujuq tilda onaizoriga tuni bilan xudodan shifo tilab chiquvchi «begunoh go'dak» - qizcha holati bayon etilgan. Ona esa har qanday vaziyatda ham o'z bolasini o'ylaydi.

«Mayiz yemagan xotin» hikoyasi ham alohida o'ringa ega bunda yozuvchi yangi zamondagi o'zgarishlarni ko'rolmaydigan, paranjini tashlagan qizaloqdan tortib har bir keksa ayolgacha - barchaga gumonsirab qaraydigan, ular haqida kurakda turmaydigan g'iybat gaplarni tarqatishdan or qilmaydigan mulla Norqo'zining hajviy qiyofasini yaratgan.

«Sarob» romani haqida so'z yurilar ekan adib unda 20-yillar oxiri, 30-yillarning boshlaridagi «millatchilar» deb atalgan ijtimoiy kuchning mahv etilishi, o'z g'oya va orzularini amalga oshiro olmay, inqirozga g'oz tutishi jarayonini badiiy gavdalantirgan. Abdulla Qahhor hayotda ham, badiiy ijodda ham o'z haqiqatlarini topgan, shu haqiqatlar uchun sabot bilan kurashgan va u ongli hayoti va iste'dod quvvatini aynan shu haqiqatlarga bag'ishlagan. Abdulla Qahhor ma'nan ulg'aygani sayin shu haqiqatlarning boqiyligidan ilhomlangan. Adabiyot taqdiri yurt va millat taqdiri bilan uzviy bog'liq. Millatning qalb dardlariga ham dastlab adabiyot malham topadi. Chunki xalqning yashash zavqi susaysa - g'ayrati susayadi. Ma'naviy-ruhiy g'ayrat pasaysa - fikr va tashabbus to'xtaydi. Abdulla Qahhor aytganidek, «Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o'tin yorishga sarf qilish kerak emas». Barcha buyuk yozuvchilardek, Abdulla Qahhorning ham shaxsi - ijodiga, ijodi - shaxsiga bir ko'zgudir. Adib ijodini sevganlar albatta uning shaxsiga



maftun bo'ladi, shaxsini bilganlar esa - uning ijodiga, desak mubolag'a bo'lmaydi. Istiqloq adabiyoti - haqiqat adabiyoti, shijoat adabiyoti, havasga arzigulik hurriyat va ma'rifat adabiyoti o'laroq shakllanadi. Abdulla Qahhor bir suhbatida «Men adabiyotga uning mohiyatini bilmasdan, adabiyot propaganda quroli ekanini yuzaki, juda ham yuzaki tushunib kirganman», deydi. Tavalludiga oltmish yil to'lganda esa «Men qirq yillik ijodiy faoliyatim davomida ko'p ish qilganim yo'q, chunki bu qirq yilning ko'pini tajriba orttirishga sarf qildim», degan edi. Tabiiyki, adabiyotning mohiyatini bilmasdan qilingan ish - adabiyot namunasi sifatida yashay olmaydi. Abdulla Qahhor bunday so'zlari o'zining ijodiga ham xolisona qarashga qodirligini isbotlagan.

#### **Xulosa**

Xulosa o'rnida o'zbekning atoqli va zabardast yozuvchilaridan biri o'tkir qalam sohibi Abdulla Qahhor asarlarida bugungi shiddatli zamonda yashab, bir qancha tuyg'ulardan uzoqlashayotgan yangi davr kishilari uchun ibrat bo'la oladi. Tegishli xulosalar chiqarishga va xatolarni takrorlamaslikka undaydi. «Bizning Abdulla Qahhordek benazir yozuvchimiz bo'lgan, u o'zining boqiy asarlari va o'lmas jasorati ila doimo biz bilan birga yashayotir...» degan g'urur-iftixor tuyg'usi bugun ham ijod ahlining mahzun qalbiga umid va jasorat bag'ishlab turadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. A. Madvaliyev tahriri ostida, O'zbek tilining izohli lug'ati, Toshkent, 1981.
2. A. Qahhor, Anor. Qissa va hikoyalar to'plami, Toshkent, G'ofur G'ulom, 2012.
3. M. Sulaymonov, O'zbek xalq og'zaki ijodi (Akademik litseylar uchun o'quv qo'llanma), Namangan nashriyoti, 2010.
4. O. Madayev, Xalq og'zaki poetik ijodi, Sharq, Toshkent, 2010.
5. <https://ilmlar.uz/wp-content/uploads/2021/11/Abdulla-Qahhor-hikoyalari-haqida>.